

Muhayyo Hakimova

(Toshkent, O'zbekiston)
hakimova@navoiy-uni.uz

Vaqt semantikali leksik birliklarning matn shakllantirish imkoniyatlari

Abstrakt

Tilshunoslik so'nggi davrlargacha qismlarni (matnning qurilish ashyolarini) butundan (matndan) ajratgan holda tadqiq etdi va katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ma'lumki, har qanday qismning xususiyatlari butun tomonidan belgilanadi. Shuning uchun qismni butundan mutlaq uzoqlatgan holda tadqiq etish shu qism (element) mohiyatining to'liqroq ochilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, shunday birliklar (hodisalar) mavjudki, ular butun bilan shartlanganliklari uchun qism talqinida yaxshi o'rganilmay qoladi. Uchinchidan, iyerarx (pog'anali) sistemalarda (til ham iyerarx qurilishga ega) "butun" tushunchasi nisbiy bo'lib, eng so'nggi butunning qayerda tugashi va makrobutunning mikrobutunlarga munosabati muammolari har bir fan uchun qator munozarali masalalarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan vaqt ma'noli birliklarni matn shakllantirishdagi ahamiyati, imkoniyatlarini o'rganish o'zbek matn tilshunosligi uchun muhimdir. Maqolada vaqt ma'noli ot va ravish leksemalarning matn shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: temporallik, matn, kontinuum, kontakt aloqa, distant aloqa, zanjirli aloqa, bog'lovchi, leksik takror.

Text of Semantic Lexical Units for Time Molding Options

Abstract

Until recently, linguistics has studied parts (the building blocks of a text) in isolation from the whole (text) and has made great strides. It is known that the properties of any part are determined by the whole. Therefore, the study of a part with an absolute distance from the whole may lead to a more complete disclosure of the essence of that part (element). On the other hand, there are units (events) that are not well understood in the interpretation of a part because they are conditioned by the whole. Third, in hierarchical (hierarchical) systems (language also has a

hierarchical structure), the concept of 'whole' is relative, and the problems of where the last whole ends and the relation of the macrobutain to the microobutus raise a number of controversial issues for each science. In this regard, the study of the importance and potential of time-meaning units in the formation of the text is important for Uzbek text linguistics. The article reveals the possibilities of text formation of lexemes in the sense of time and form.

Key words: temporality, text, continuum, contact, distance communication, chain communication, linking, lexical repetition.

Kirish

Har qanday fan o'zining tadrijiy taraqqiyotiga ega. Taraqqiyot esa fanning o'z obyektiga munosabati, aniqrog'i, uning (obyektning) qay holda va ko'lamda belgilanishi bilan bog'liq. Bundan tilshunoslik ham mustasno emas.

Tilshunoslik tarixidan yaxshi ma'lumki, lingvistika fani dastlabki davrlarda filologik tadqiqotlar, ya'ni badiiy ijod mahsullari bo'lgan asarlarni talqin etish jarayonida shakllana boshlagan. Boshqacha aytganda, so'z ma'nolarini izohlash, so'z qo'llash mahoratini (uslubini) aniqlash, chet so'zlarga munosabat, qadimgi qo'lyozmalarning grafik xususiyatlariga sharh berish kabi tilshunoslik masalalari badiiy matn talqini tarkibidan o'rin olgan. Adabiyotshunoslik bilan tilshunoslik uzviy bog'liqlikda va hamkorlikda ish ko'rgan. Aytish mumkinki, davrlar o'ta borgan sari tilshunoslik o'z tekshirish maydonini ajratib, yo'nalishlarini aniq belgilab, adabiyotshunoslikdan uzoqlashib bordi. Matn bilan bog'liq masalalar, asosan, tilshunoslikning stilistika sohasi ixtiyorida qola boshladi. Shundan so'ng tilshunoslarning asosiy diqqati matnning tashkil etuvchilari bo'lgan gap, so'z birikmasi, morfema, fonema kabi birliklarning o'ziga xos belgilari, mohiyati, bir-birlariga munosabati kabi masalalarga qaratila boshlandi.

Uzoq davrlar mobaynida tilshunoslikda tilning eng katta birligi yoki butunligi gap deb qaraldi. Hatto gap til birligi emas, balki nutq birligi degan qarash ham keng yoyilgan edi. So'nggi davrlarda gap, aniqrog'i, uning qolipini til birligi sifatida baholash ommalashdi. Ikkinchi tomondan, gap tarkibida shunday birliklar bor ediki, ular gapning matnga munosabatlarini ko'rsatganliklari, demak, gapdan tashqarida (gap bilan matn oralig'ida) turganliklari uchun bu birliklarning xususiyatlarini gap ichi omillari bilan izohlab bo'lmas edi. Xususan, adabiyotlarda *xullas*, *birinchidan* kabi so'zlar asossiz ravishda modal, ya'ni so'zlovchining o'z fikrga munosabatini (aniq,

gumon kabi) ko'rsatuvchi so'zlar deb baholanadi. Holbuki, bu so'zlar shu so'z turgan gapni undan oldingi matn bilan bog'lovchi, shu nuqtayi nazardan munosabat ko'rsatuvchi til birliklari hisoblanadi. Shuningdek, olmoshlarni ham bir gap doirasi izohlash bilan mumkin emas. Bu uning ta'rifidayoq, ya'ni boshqa so'zlar o'rnida qo'llanuvchi deyilishida ham aks etgan. Aslida biz bir gap ichida qo'llangan muayyan so'zni navbatdagi gapda, demak, matnda olmosh bilan almashtiramiz. Bunda olmosh mustaqil sodda gaplarning, ya'ni matnning bog'lovchisi vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, o'zbek tilidagi kuchaytiruvchi - ta'kidlovchi yuklamalarning (-da, -ku, -oq/-yoq kabi) funksiyalarini bir gap ichi olmoshlari asosida aniqlash mumkin emas. Qiyoslang: *"Men-ku kecha kelgan... Men-da kecha kelgan..."* kabi mantiqiy urg'uni izohlashda bir gap semantikasi bilan chegaralanish salbiy oqibatlariga olib keladi.

Hozirgi paytda tilshunoslarning e'tibori "nutq - til - til birlik-lari" yo'nalishidan (konkretndan abstraktga) "til birliklari - til sistemasi - nutq" (abstraktdan konkretga) yo'nalishi tomon qaratilmoqda. Boshqacha aytganda, analitik usul o'z yetakchiligini sintetik usulga bo'shatib bermoqda. Endi qismlar mohiyatini o'rganishdan shu qismdan tashkil topgan butunning tabiatini o'rganish avj olmoqda. Tilshunoslikdagi butun muammosi matn masalalarini dolzarblikka ko'tarmoqda. Mazkur masalani yoritishda O.I.Moskalkaya, I.Galperin, A.Mamajonov, M.Yo'ldoshev, D.Xudoyberganova asarlari va maqolalari, so'ngra o'zbek matnshunosligiga odi ma'lumotlar o'rganildi.

Matnda vaqt kontinuumi

Matndagi vaqt kontinuumini ifodalashda, asosan, fe'lning o'tgan zamon shakllaridan foydalaniladi. Chunki o'tmish kelajakka nisbatan yaqin va aniq hodisadir. Ba'zan kontinuum bevosita vaqt bildiruvchi birliklar bilan emas, balki harakat-hodisaning o'zi bilan ham ifodalanadi. Bunga harakat va zamonning uzviy bog'liqligi, ajralmasligi asos bo'ladi. Masalan, *Oy chiqdi, lekin ular kelmadi* (so'zlashuv nutqidan). Bu yerda *"oy chiqdi"* gapi harakat anglatrsa ham, oy chiqqunga qadar bo'lgan vaqt ma'nosi uchun qo'llanmoqda.

Vaqt ma'noli so'zlar matnda o'zaro bog'lanib, bayon qilinayotgan voqea-hodisalarning oqimini, xronologik ketma-ketligini bildiradi. Eslatganimizdek, matnda narsa-hodisalarning vaqtdagi rivojlanish davomiyligi kontinuumni tashkil etadi [Гальперин 1981, 24-32]. Voqealar rivoji matn turlarida har xil bo'lib, undagi vaqt kechimi boshqa matn turlaridan tubdan farq qiladi.

Badiiy matndagi vaqt o'lchovlari muallifga bog'liq bo'lib, undagi vaqt cho'zilishi, qisqartirilishi, hatto orqaga qaytarilishi ham mumkin. Badiiy matn vaqti obyektiv hayotdagi vaqt bilan aynan emas. Ba'zi badiiy matnlarda, asosan, fantastik asarlarda xronologik ketma-ketlik, mantiqiy izchillikning buzilish hodisasini (diskontinuumni) kuzatish mumkin.

Narsa vaqt va makonda harakatlanar ekan, har bir matn turida vaqt kontinuumi bo'lishi shart. Matn turi, uslubi va muallifning maqsadiga qarab vaqt oqimi yorqin yoki xiraroq berilishi mumkin. Vaqt kontinuumi ko'proq tarixiy-ilmiy, tarixiy-badiiy matn turlarida yorqin ifoda etiladi va matn komponentlari temporal so'zlar zanjiri bilan bog'lanadi: *"1219-yilning sentabrida mo'g'ullar O'troni qamal qiladi. Chig'atoy bilan O'g'adoy bu shaharni ishg'ol qilaman deb besh oy urinadi. Faqat 1220-yilning yanvariga kelgandagina a'yonlardan birining sotqinligi tufayli mo'g'ullar shaharga kirishga muvaffaq bo'ladilar. Ular odamlarni asir olmadilar, qimirlagan jon borki, qilich tig'idan o'tkazilar edi"* ("O'zbekiston xalqlari tarixi"). Ba'zi matnlarda vaqt kontinuumi voqea-hodisalar zamirida bo'ladi va kuchsizroq aks etadi. Bunda vaqt oqimi temporal semantikali so'zlar bilan yoki ularsiz ham berilishi mumkin. Vaqt semantikali lug'aviy birliklar matnda voqea-hodisalarning sodir bo'lish vaqtini bildirar ekan, ular fe'l zamon formalari ifodalagan mavhum vaqtни aniqlab (detallab) keladi. Diqqat qiling: *"Ko'p yillik istibdoddan so'ng o'zbek xalqi ozodlikka erishdi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qildi. Yoki: Ko'p yillik istibdoddan so'ng o'zbek xalqi ozodlikka erishdi. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Bu sana mamlakat tarixiga oltin harflar bilan bitib qo'yilajak"* ("Xalq so'zi").

Vaqt ma'noli leksemalar matnda gaplarni birlashtiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Ular gaplarni mazmun va sintaktik jihatlardan bog'lagan holda matn shakllantirish imkoniyatiga ega:

"Tonggi g'ira-shirada shaharga tushib ketgan kelinini Solihabibi bu gal qandaydir umid va sabrsizlik bilan kutdi. Ammo kun o'tishi qiyin bo'ldi. Peshingacha hovlida g'imirlab yurdi: og'ilxona oldida g'ujanak bo'lib yotgan pomidorni tirgovich qo'yib taradi, bo'yi kelib tursin deb, ayvonga yaqin ekilgan bo'yradak joydagi oshrayhonning tagini chopdi. Peshindan keyin qo'shnisining beqasam ko'rpasini qavishga o'tirdi. Tovuqning qaqalagani eshitildi. Solihabibi beixtiyor hovliga nazar tashladi. Kun botdi. Nega kelinidan darak yo'q?" (O'Umarbekov). Ushbu matndagi voqealar rivoji muayyan vaqt ketma-ketligida, ya'ni "tong – peshingacha – peshindan keyin –

kun botdi” izchilligida bayon qilinmoqda. Ko‘rinib turibdiki, matn tarkibidagi gaplarning bog‘lanib bir butunlik tashkil qilishida asosiy bog‘lovchi vosita bo‘lib vaqt semantikali so‘zlar ishtirok etmoqda.

Payt otlari matndagi gaplarni kontakt va distant aloqalar bilan bog‘laydi. Yonma-yon so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi kontakt, orasida boshqa gaplar mavjud bo‘lgan gaplarning bog‘lanishi distant (masofali) aloqa hosiblanadi. **Asr, yil, fasl, oy, hafta, sutka (kun), soat, minut, sekund** kabi leksemalar matndagi voqea-hodisalarning aniq vaqtini, voqea-hodisalar orasidagi vaqt davomiyligini anglatadi:

“1960-yilda dorulfununni tugatib “Yosh gvardiya” nashriyotiga ishga kirdim. 1963-yilda badiiy adabiyot nashriyotiga o‘tib, to 1970-yilgacha muharrir, bo‘lim mudiri vazifalarida ishladim. Bu o‘n yil ichida mening yettita she‘riy kitobim, Yesenin, Ukrainka, Svetlovdan qilgan tarjimalarim bosilib chiqdi. Hamza nomli teatrda 1969-yilda “Oltin devor” komediyam qo‘yildi” (E. Vohidov). Ushbu matn parchasida “1960-yil”, “1963-yil”, “1970-yil”, “o‘n yil” vaqt ma‘noli lug‘aviy birliklardan iborat so‘z birikmalarining kontakt aloqasi orqali matn shakllangan.

Quyidagi matnda esa vaqt o‘lchovini ifodalovchi leksemalar distant bog‘lanish hosil qiladi: *“Bunga beshyildan oshdi. Ko‘z oldimdan ketmaydi. Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro‘parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog‘ini yamayotgan edi, shekilli... Birdan ko‘cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qarasam – tobut! Men ana ketti, mana ketti bo‘lib yotgan edim-da, o‘sha kuni ertalab birov avtobusda yig‘lab ketayotgan bir bolani ko‘rib, mening ukamga o‘xshatibdi-yu, shundan haligidek gap tarqalibdi”* (A. Qahhor). Ushbu matn barchasi olti gapdan iborat bo‘lib, 3- va 6-gap o‘zaro “kun” va “o‘sha kuni” olmoshli leksik takror (leksik-grammatik element) yordamida distant bog‘lanmoqda.

Sutka qismlarini nomlovchi so‘zlar

Sutka qismlarini nomlovchi so‘zlarning matn hosil qilish imkoniyatlari badiiy matn turida yorqin ko‘rinadi. Sutka qismlari ham boshqa vaqt ma‘noli lug‘aviy birliklar qatori matndagi xronologik ketma-ketlikni, mazmuniy izchillikni ta‘minlaydi: *“Yoz kechasi qisqa. Yo‘lchi bir chindim uxlab, begona joyga o‘rganmaganidanmi, ko‘zlarini ocharkan, tong otgan edi. Havo salqin, toza. Unda-munda qushlar sayraydi”* (Oybek).

Sutka qismlari o‘lchov birliklari kabi aniq vaqtni bildirmasada, ular sutkaning ma‘lum qismida bo‘lgan voqea-hodisalarning vaqtini anglatadi: *“Uch kundan keyin Sobir tong pallasida ketmonini*

yelkaga qo'yib, ho'l oyoqlarini tuproqqa tap-tap tashlab uyga qaytar edi. **Butun kecha** u g'o'za sug'organ edi. Pastak devor orqasidan ketmon tovushi eshitildi... " (Oybek).

Sutka qismlarini nomlovchi leksemalar gaplarni kontakt ham, distant ham bog'lay oladi. Quyidagi misolda oqshom, kunduz, erta so'zlari kontakt matnni bog'lagan:

Oqshom. Oshxonada kuymalanaman,
Kunduz tashvishlarin olib yelkamdan.
Yomg'ir esa yog'ar men o'ylanaman,
Xavotir olgancha namxush **ertamdan** (M. Hamroyeva).

Sutka qismini atovchi payt otlarining masofali aloqada gaplarning o'zaro bog'lanishiga quyidagi matn misol bo'la oladi:

Tong chog'i qarayman ufq tomonga,
Ko'k yuzini tutar olov lovva-lov.
Go'yo qanotini yoyar jahonga
Naqadar chiroyli tovlanishlari,
Nimalarning ramzi bu ol rang xil-xil...
Uzoq ufqda ne hodisa bor?
Dunyodan xabar ol olovli ko'ngil!
Tong chog'i ufqqa tashlayman nazar,
Dilni girdobiga olar ajib dam (Mirmuhsin).

Yuqoridagi parchada distant aloqa kichik hajmli she'rda bo'lib, tong so'zi to'rt gapdan keyin takrorlanmoqda. Ba'zi katta hajmli matnlarda juda uzoq masofali gaplar ham bog'lana oladi.

Sutka qismlarini ifodalovchi leksemalarning sinonimlar yordamida gaplarni biriktirishi badiiy matn turida juda ko'p uchraydi:

"Har kuni **saharda** hali quyosh chiqmasdan sayr qilish odatim bor. Ko'chaga chiqaman, anhor labida aylanaman, keyin boqqa o'taman.

Erta tongda bog'ning husni o'zgacha bo'ladi. Havo muzdek, buning ustiga tiniq. Qushlar shoxdan shoxga o'tib sayraydi, goh olisda, bog'ning orqa tomonida, goh shunday tepangizda kakku kukulaydi. Chittak o'ynashib oyoqlaringiz orasida o'rmalaydi, yo pir etib yuzingizni silab o'tib ketadi" (O'Umarbekov).

Sutka qismlarini nomlovchi leksemalar leksik takror orqali ham matn qismlarini bog'laydi:

Yana **tong** otdi...
Men uni kutib olaman
Eng baland qavatlarda

Hayajonni quchoqlagancha.

Tong... *kuylay boshlaydi*

Eng erka qo'shiqni qushchalar.

Uyg'onadi shirin tushida

Quyoshni sog'ingan shahar (M. Hamroyeva).

O'lchovli vaqt otlaridan fasl nomlarining badiiy va ilmiy (tabiatshunoslikka oid) uslublarda matn shakllantirish imkoniyatlari juda katta. *Bahor, yoz, kuz, qish* leksemalari nafaqat o'z ma'nolari bilan, balki ko'chma ma'nolari bilan ham matn shakllantirish imkoniyatiga ega. Ushbu holatda ham fasl nomlari matn komponentlarini kontakt va distant aloqa turlarida bog'lab, matnning bir mazmuniy butunligini ta'minlaydi:

To'lmay turib yuraklar muzga,

*Uzrimiz bor munisa **kuzga**.*

Aytarmu do'st dil rozin bizga,

*Qaytarmikan umrim **bahori**.*

Bolaligim orza armonim (Qo'shiqdan).

Ushbu matn parchasida *kuz* va *bahor* so'zlarining ko'chma ma'nolari antiteza usulida bog'lanib kontakt aloqa hosil qilmoqda. Quyidagi she'riy parchada *kuz* leksemasi o'zining bosh ma'nosida distant aloqani tashkil etmoqda. U leksik takror yo'li bilan 1- va 4-gaplarni bog'lamoqda:

Og'irlashib borsa ham dard, azobingiz,

*Xazonparast **kuzning** yo'lchalarida.*

Siz shodsiz, bari iztirobingiz

Eriydi o'g'lingiz qo'lchalarida.

Entikib kirasiz: "Keldim, bolajon",

Tugaydi har qanday iztirob to'yi.

Qiqirlagancha sizga osilar shodon,

Boladak beg'ubor Vatanning bo'yi.

Charchoqni paltoda ilib qo'yarsiz,

*Faslning **kuzligi** bo'ladi unut* (Z.Mo'minova).

O'lchovsiz payt otlaridan "vaqt" leksemasi dinamik harakat ifodalagan barcha gaplarni boshqa gaplar bilan bog'lashi mumkin. Zero, har qanday harakat vaqtda yashaydi [Москальская 1981, 56-68]. *Vaqt* va uning sinonimi *payt* leksemalari matnda bog'lovchi vazifasida kelar ekan, ular ko'pincha ko'rsatish olmoshlari bilan birga qo'llanadi: *shu vaqt (payt), o'sha paytda, u paytgacha* va hokazo. *Vaqt, payt* leksemalarining olmoshlar bilan birikib kelishini matnning o'rta

yoki so'nggi qismida kuzatish mumkin. Shunday olmosh mavjud bo'lgan gaplar matnda ularga bog'liq gaplar borligini ko'rsatadi:

*“Ovqat yeyilib, choyga o'tilganda Umarshayx mirzo xotinlariga vaziyat qanchalik og'irlashayotganini aytib berdi. **Shu payt** masjid tomondan azon tovushi eshitildi. Choy ichayotgan Xonzoda begim shoshilib piyolasini dasturxonga qo'ydi”* (P.Qodirov).

Sinonimlar lug'atida “vaqt” leksemasiga sinonim qilib berilgan *on*, *lahza* leksemalari juda kichik vaqtni bildiradi. Ular matnda o'zidan katta vaqt davomiyligining qismi sifatida (*Aziz asrimizning aziz onlari, Aziz insonlardan so'raydi qadrin, **Fursat** g'animatdir shoh satrlarla, Bezamoq chog'idir umr daftarin*) yoki bir butun predmet tasavvurida kelishi mumkin (Bir **onning** bahosin o'lchamoq uchun oltindan tarozu, olmosdan tosh oz. Nurlar qadamila chopgan sekundning barini tutolmas ayhannos ovoz). Ko'p hollarda **on**, **lahza** leksemalari matnda ko'rsatish olmoshi bilan birga o'zi ishtirok etayotgan gapni oldingi gapga mazmunan bog'laydi. Bunda **on**, **lahza** leksemalari faqat kontakt aloqa usulida bog'lanish hosil qila oladi. Bu esa ikkala leksemaning semantik sig'imi kichik vaqt davomiyligini ifodalashi bilan izohlanadi.

Insoning biologik holati bilan bog'liq *bolalik, yoshlik, qarilik, keksalik, umr* kabi leksemalar inson hayotining ma'lum davrini bildirib, badiiy matn turlarida ko'p qo'llanadi va ular ham o'z semantikasi nuqtayi nazaridan gaplarni bog'lash imkoniyatiga ega:

*Sochimizga qirovlar indi,
Baxt otiga birovlar mindi,
Dilda bo'lak so'rovlar tindi,
Qaytarmikan **umrim bahori...***

Bolaligim orzu armonim (qo'shiqdan).

Ushbu matnda bolalik leksemasi *umrim bahori* so'z birikmasiga kontakt bog'lanib kelmoqda. *Qaytarmikan* so'zi yoshlik, bolalik davri o'tib ketganini bildirsa, sochga qirov inishi (fiziologik xususiyat), baxt otiga birov minishi, dilda bo'lak so'rovlar tinishi (ruhiy xususiyat) qarilikning kelganidan darak beradi. Muallif *bolaligim, yoshligim o'tdi, qaridim* degan fikrni ustalik bilan shu davrda bo'ladigan fiziologik, ruhiy holatlar bilan ifodalagan.

Vaqt ma'noli leksemalarning matn shakllantirishdagi usullaridan biri shuki, bunda vaqt semantikali so'z matnda yetakchi bo'lib keladi va bir qancha gaplar shu so'zga, u ishtirok etgan gapga mazmunan bog'lanadi. Ushbu yetakchi so'z ko'pincha matn boshida, ba'zan esa matn oxirida kelishi mumkin. Yetakchi so'z matn ichida o'zidan kichikroq vaqt davomiyligini bildiruvchi so'zlar bilan

aniqlanishi ham mumkin:

*“1814-yilning xushro‘y, xushbo‘y va xushnud **bahori**. Poytaxt Qo‘qon ahli **juma namoziga** oshiqib turibdi. Buning boisi shuki, mamlakat hukmdori Amir Umarxon farmoni bilan qurilgan masjidi jomening ochilishi shu kunga tayinlangan. Demak, xon ham, vazir-u vuzarolar ham, qozi-yu qozikalonlar ham juma namoziga hozir bo‘lishidi. **Soat o‘n ikkiga yaqinlashganda**, toza-pokiza kiyingan odamlar jome tomonga oqib kela boshladilar”* (T. Jalolov).

Yuqoridagi matnda yil bahor bilan, bahor fasli kun (juma) bilan, kun esa soat (soat 12 larga yaqin) bilan aniqlanmoqda. Aytish kerakki, yetakchi so‘z o‘zidan kichik vaqt davomiyligini bildiruvchi leksemalar yoki vaqtga aloqador bo‘lmagan, lekin vaqt ifodalovchi yetakchi so‘zning sifatini ochuvchi boshqa ma’noli so‘zlar bilan ham aniqlanishi mumkin: *“**Qish** chillasi avjida. **Izg‘irinli** yellar esadi. Qo‘l-oyoqlariga kishan solingan, kiyimlari yirtiq mahbuslar Samarqandning Registon maydonida **sovuqdan qaltirab**, shahar qozisining hukmini tinglaydilar”* (P.Qodirov).

Ushbu matnda “qish” so‘zi yetakchi bo‘lib, 2-gap 1-gapga “sovuq” semasi yordamida bog‘langan. Chunki “qish” sememasida ham, “izg‘irin” sememasida ham “sovuq” semasi mavjud. 3-gapda esa “sovuq” semasi semema holida yuzaga chiqadi va mazkur gapni 1-gap bilan distant, 2-gap bilan kontakt bog‘laydi.

Vaqt ma’noli so‘zlar matnning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qilar ekan, bunda vaqt ma’noli so‘z matn boshida keladi va u o‘zining semantik imkoniyatlari asosida keyingi gaplarda aniqlanishi, to‘ldirilishi, izohlanishi, kengaytirilishi mumkin. Har bir matn shakllantiruvchi vaqt ma’noli so‘zlarning matn shakllantirish imkoniyati uning semantik sig‘imiga bog‘liq bo‘ladi. Xususan, bugundan keyingi kunda yuz beruvchi voqealar tizimini ifodalashda “ertaga” sememasining semalari mustaqil semalar mavqeyida payt zanjiriga aylanib matn hosil qilishda ishtirok etadi. Masalan, so‘zlashuv nutqimizga oid bo‘lgan matnga e’tibor qilaylik: ***“Ertaga saharda uyqudan turamiz. Azonda yo‘lga tushamiz. Tush paytida Samarqandda, shomda Buxoroda bo‘lamiz. U yerda bizni soat 18 larda kutib olishadi. Kun bo‘yi charchasak kerak”***.

Bunda shunisi muhimki, “ertaga” sememasi matn boshida turib olib uning kengayishi uchun o‘zining ichki semalarini mustaqil sememalarga aylantirib beruvchi nutqiy semantik generator vazifasini bajarmoqda. Yuqorida eslatilganidek, “ertaga” sememasining semalari quyidagilardan iborat: “bu”, “kun1”, “keyingi”, “kun3”, “sutka”, “kun”, “sahar”, “ertalab”, “choshgoh”, “tush”,

“peshin”, “shom”, “tun”, “xufton”, “soat”, “minut”, “sekund”.

Vaqt ma’noli leksemalar

Vaqt ma’noli leksemalarning matn shakllantirishida ikki xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi holatda matn tarkibidagi barcha gaplar bevosita yetakchi so’zga bog’liq bo’ladi. Boshqacha aytganda, ushbu so’z barcha gaplar uchun umumiy bo’ladi. Bunda matndagi temporal so’zga bog’lanayotgan hamma gaplar mazkur so’z ishtirok etayotgan gapga nursimon bog’lanadi:

1. Odatda, yurtimizga **bahor** fevralning o’rtalarida keladi va tabiat o’zgacha tus ola boshlaydi. 2. Havolar ilib, dov-daraxtlar uyg’ona boshlaydi. 3. Qushlar uchib kelib, eski inlarini tuzatishga yoki yangisini qurishga tushadilar. 4. Ariqlar zilol suvlarga to’lib, atrof ko’m-ko’k maysazorga aylanadi (“Atrofimizdagi olam”). Ushbu matn parchasida 2-, 3-, 4-gaplar bevosita birinchi gapga bog’lanib, uni izohlab, aniqlab kelmoqda.

Gaplar bir-biriga zanjirsimon aloqa usuli bilan bog’lanishi mumkin. Bunda vaqt ma’noli yetakchi leksema zanjirning boshlanishi bo’lib xizmat qiladi. Bu kabi matn turlarida kontakt aloqa amalda bo’ladi: “**Martning o’rtalari** edi. Birdan **kunlar** isib, tog’dagi qorlar erib ketdi. Bodomsoy tosha boshladi. Lekin sinoptiklar bu toshqin xavfli emas, **kechga yaqin** to’xtaydi, deyishdi. Shunga qaramay ba’zi bir ehtiyot choralari ko’rildi. Ammo **tongga yaqin** Burxonovga Bodomsoy labidagi Selketdi qishlog’ini suv bosganini, uch-to’rtta uyni suv olganini xabar qilishdi. Burxonov **shu zahotiy**oq yo’lga tushdi” (O’Umarbekov).

Ushbu matnda yetakchi so’z bo’lib *mart* leksemasi kelmoqda. 1-gapdagi *oy* (mart) leksemasi 2-gapda *kun* leksemasi bilan aniqlanmoqda. Ushbu bog’lanish *oy* leksemasining tarkibida *kun* semasining mavjudligi sababli amalga oshirilgan. 3-gapda esa *kun* leksemasi (kechga yaqin) sutka qismigacha aniqlanib, *kech* semasi asosida 2-gapga bog’lanmoqda. 5-gapda *kech* leksemasi ketma-ketlik asosida *tongga* almashgan va 3-gap 5-gapni shu yo’sinda bog’lagan. 6-gapda *tong* leksemasi yanada kichik vaqt davomiyligi *shu zahoti* bilan aniqlanmoqda. Demak, ushbu matndagi vaqtning aniqlanishi quyidagichadir: *oy* (mart) – *kun* – *kech* (kechga yaqin) – *tong* (tongga yaqin) – *shu zahoti*.

Shuni aytib o’tish joizki, yuqoridagi ikki usul (kontakt, distant) sof holda uchramasdan, aralash holda kelishi ham mumkin. Quyidagi misol ushbu fikrimizning dalili bo’la oladi: “**Kechki payt**, quyoshning zarrin nurlari arg’uvoniy tus olgan, shundan bulutning etagi-yu,

odamlarning chehrasi qizarib ko'rinardi. Go'yo osmonda quyosh emas, qandaydir muazzam gulxan yonib, uning lolarang shu'lasini olamni tutgan. Zurafo otasini asr namoziga jo'natib, boqqa chiqqanida, Otao'g'il uni intizorlik bilan kutib turgandi. Qizning nazarida, Otao'g'il bomdoddan asrgacha o'zini biroz oldirib qo'ygandek tuyuldi, yuragi achishdi" (T.Jalolov).

Ushbu matnda o'zaro bog'langan to'rt gap bo'lib, kechki payt yetakchi so'z sifatida kelmoqda. 2- va 3-gaplar 1-gapga bevosita, 4-gap esa 3-gap bilan izchil bog'lanmoqda.

Vaqt ma'noli leksema matnda bog'lovchi vazifasida kelar ekan, bog'lanayotgan so'zlarning sememalarida aynan sema bo'lishi yoki semaning sememaga aylanishi kuzatiladi. Mazkur aynanlik asosida bog'lanayotgan sememalar orasida sof aynanlik, sinonimiya, antonimiya, butun-qism, tur-jins, darajalanish, sifatlash munosabatlari mavjud bo'ladi. Ushbu munosabatlar leksik takror, olmoshlar, sinonimlar, bir gap doirasida ma'nosi aniqlanmagan so'zlar, *shundan beri, o'shandan so'ng, undan keyin* kabi leksik-grammatik elementlar yordamida birikishi asosida yuzaga chiqadi.

Quyidagi she'riy matnda sinonimik birikuv va leksik takror yordamida gaplar bog'langan:

*Onajon! Har sahar turgan chog'imda
Olis o'lkadami yo qishlog'imda,
Uyimda, kuyimda, to'kkan terimda,
Yo **tong** pallasi yozgan she'rimda
O'sha kun quyoshi bo'lib qolasiz
Har **tongni** men bilan qarshii olasiz* (H. Nuriy).

Bir gap doirasida ma'nosi aniqlashmagan so'zlar, so'z birikmalari, mazmunan izoh talab qiladigan gap tiplari, ikki va bir tarkibli gaplar yordamida birikishlarda ham vaqt ma'noli so'zlar ishtirok etadi. Yaxlit vaqt ma'noli gap sifatida atov gapni ko'rsatish mumkin. Atov gapning tavsifi matnda ochiladi: "*Kuz. Yig'im-terim payti. Xirmon to'la paxta. Ish qizigan. Shiypon avvalgidan ham chiroylik qilib bezatilgan. Terimchilar etak-etak, qop-qop paxta terib xirmonga to'kmoqdalar. Tarozibon va hisobchining qo'li-qo'liga tegmaydi*" (Uyg'un).

Ushbu matn kuzning *yig'im-terim payti* potensial semasi asosida shakllangan.

Payt ravishlari ham boshqa temporal so'zlar kabi matndagi xronologik ketma-ketlikni, mazmuniy izchillikni ta'minlaydi. Payt ravishlari payt otlari kabi matndagi voqea-hodisalarning aniq vaqtini bildirmasa-da, lekin fe'l zamon formalariga nisbatan aniqroq vaqttni

bildiradi:

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,
Zuhro yulduz miltirab xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim birinchi muhabbatim (A.Oripov).

Payt ravishlari matn komponentlarini mazmun va sintaktik jihatdan bog'lay oladi. *Kecha, bugun, ertaga, bultur, ertalab, kunduzi* kabi payt ravishlari matnda yetakchilik qilib matn komponentlarini mazmunan bog'laydi. Ushbu ravish leksemalarning matn shakllantirishida ot leksemalarda bo'lgani kabi, ularning semantik tarkibi asosiy ahamiyatga ega. *Bultur* leksemasi bir yilda bo'lib o'tishi mumkin bo'lgan voqealarni ifodalovchi gaplarni, *kecha, bugun, ertaga* leksemalari bir sutkada bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarni ifodalovchi gaplarni, *ertalab, kunduzi, kechasi* esa sutkaning shu qismida sodir bo'luvchi voqea-hodisalarni ifodalovchi gaplarni bog'lay oladi. Lekin matnlarda ma'lum muddatdagi voqea-hodisalarning barcha tafsilotlari berilmaydi, berishning iloji yo'q. Matnlarda voqea-hodisalarning maqsad uchun zaruri beriladi. Vaqt qisqartirilib tasvirlanishi mumkin. Matnda yetakchilik qilayotgan leksema o'zining asosiy va potensial semalari asosida gaplarni bog'laydi. Asad Asilovning "Mehr" hikoyasi yuqoridagi fikrimizga misol bo'la oladi. Olti xatboshidan iborat hikoyada (makromatn) frazalararo aloqa vositasi bo'lib vaqt semantikali so'zlar ishtirok etadi. Hikoyada Sultonboboning kasalxonadagi bir kuni (bugun) – turmush qurganiga ellik yil to'lgan kuni sutka qismlariga bo'lib bayon qilinadi. Birinchi xatboshidagi birinchi gap *bugun* so'zi bilan boshlanadi va u butun matnning vaqt qamrovini belgilab beradi hamda barcha matnlarni distant holda o'ziga bog'laydi. Demak, *bugunning* mohiyati qismlar bilan ochiladi. 1-xatboshida Sultonboboning *bugun azonlab* qilgan xatti-harakatlari (soqol olishi, kiyinib-taranishlari), 2-xatboshida *mo'ljaldagi vaqt o'tgandan keyingi* holati (xotinini kutishi), 3-xatboshida *sal vaqt o'tgach* bo'lgan voqea (o'g'lining kelishi), 4-xatboshida *kun peshindan oqqanda, kech kirganda* bo'lgan voqealar (Sultonboboning asabiylashishi, xotiralarga berilishi), 5-xatboshida *shu payt* sodir bo'lgan voqea (eshik ochilib, xotining kirib kelishi), 6-xatboshida esa ikkovlarining *allamahalgacha* gaplashib o'tirganlari bayon qilinadi. Yuqoridagi matn *bugun* so'zining yetakchiligi asosida hosil qilingan. U butun matnning vaqt qamrovini belgilab beryapti hamda qolgan besh xatboshini kontakt va distant aloqalar bilan bog'lamoqda. Ushbu bog'lanishlar *bugun*

so'zining asosiy va potensial semalari asosida voqe bo'lmoqda.

Avval, burun, ilgari, oldin, dastlab, dastavval, ilgarilari, yaqinda, hozir, hozirdan, keyin, so'ng kabi umumiy vaqtni bildiruvchi payt ravishlarining yetakchilik qilib matn shakllantirishi kam uchraydi. Ular ko'pincha matn boshida ma'lum bir voqeaning paytini bildiradi, so'ng esa voqeaning tafsiloti davom etadi. Yuqoridagi payt ravishlari matn ichida aniqlanmasligi yoki leksik takror, olmoshlar, sinonimlar va *shundan keyin, shundan so'ng* kabi leksik-grammatik elementlar yordamida gaplarni bog'lashi mumkin. *Avval, burun, ilgari, oldin, dastlab, dastavval, ilgarilari, yaqinda, hozir, hozirdan, keyin, so'ng* kabi umumiy vaqtni bildiruvchi payt ravishlari matnda yetakchiliksiz o'zi ishtirok etayotgan gapni boshqa gapga bog'lash hollari ko'proq kuzatiladi: *"Ayol" so'zining dastlabki kelib chiqish ma'nosi lug'atlarda ojiza, chorasiz degan tushunchani anglatuvchi so'z sifatida izohlanadi. Lekin, bizningcha, bu "ayol" so'zining eski ma'nosi. Hozir bu so'zning ma'nosi kengaygan. Ayolsiz hech bir erkak zoti biron mo'jiza yaratishga ojizlik qiladi, qodir ham emas* ("Farg'ona haqiqati").

Hamon, hanuz, azaldan, mudom, kundan-kunga, yillab, oylab, soatlab kabi davomli vaqtni ifodalovchi payt ravishlari matnda gaplarni kontakt va distant aloqalar bilan bog'laydi. Misol:

*Senga o'n to'rtta bog'landim, hanuz erkin bo'lolmas dil,
O'zim dog'man, aql kirmas, to'zimsiz o'ttizimdan ham*

(E.Vohidov).

Qishin-yozin, kecha-kunduz, erta-kech, uzzukun, hamisha kabi doimiy paytni bildiruvchi payt ravishlari matnda yetakchi so'z bo'lib kelishi va matnda kichik vaqt ma'noli so'zlar bilan aniqlanishi mumkin. Ushbu so'zlarning ham matn komponentlarini kontakt va distant aloqalar bilan bog'lay olishi kuzatiladi. Quyidagi misolda "uzzukun" yetakchi so'z bo'lib kelyapti va u 2-gapda aniqlanmoqda: *"Muhabbat opa **uzzukun** tinim nima bilmaydi. Kunni quyoshdan ham oldin tandirga o't qalash bilan boshlaydi-yu, yotayotganida quyosh allaqachon botib, bir uyquni urib bo'lgan bo'ladi. O'ylab qolaman, nozikkina o'zbek ayolining joni quyoshdan ham metinmikan"* ("Sanam").

Minba'd, sira, aslo, hech qachon, hech vaqt, allavaqt, bevaqt, bemavrid kabi payt ravishlarining matnda yetakchi leksema bo'lib matn shakllantirish imkoniyatlari juda kam uchraydi. Ular ko'pincha o'zi ishtirok etayotgan gapni boshqa gapga bog'lay oladi: *"Agar Yo'lchi Nurining uyiga ketib qolsa, u vaqt nima qiladi. U (Gulnor) bu savolga sira javob berolmas edi"* (Oybek).

Qachonlardir, allaqachon, qachondir, avvallari, erta-indin,

bugun-erta kabi noaniq vaqtni bildiruvchi payt ravishlari matnda gaplarni mazmunan bog'lashi mumkin: "*Qachonlardir bo'lib o'tgan bu voqea shunday boshlanadi*" (so'zlashuv nutqidan) va hokazo.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Vaqt ma'noli temporal maydon birliklarining har biri turli darajadalarda matn shakllantirish imkoniyatlariga ega. Temporallikni ifodalovchi vositalar quyidagi funksiyalari bilan matn shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Matndagi vaqt kontinuumi – voqea-hodisalarning izchil, xronologik ketma-ketligini bildiradi.

3. Matndagi voqealarning vaqtini bildiradi: fe'l zamon formalari voqea-hodisalarning umumiy o'tgan, hozirgi, kelasi zamonga tegishlilikni anglatadi, vaqt ma'noli leksemalar ushbu vaqtning aniq muddatini belgilaydi. Fe'l zamon formalari ko'chma ma'noda qo'llanganda, atov gapli matn turlarida zamon tushunchasi vaqt ifodalovchi leksik birliklar orqali anglashiladi.

4. Temporallikni ifodalovchi vositalar matn qismlarini (gaplarni) bog'lovchilar bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Гальперин, И. 1981. *Текст как объект лингвистического исследования*. Москва: Наука.
- Ҳакимова, М. 2019. "Темпорал семантика мавҳум отлар таснифи". *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования*, 2(18): 93-98. Москва: Интернаука.
- Ҳакимов, М. Х. 2001. *Ўзбек тилида матннинг прагматик таълими*. Филол. фанлари док. дисс.. автореф. Тошкент.
- Москальская, О.И. 1981. *Грамматика текста*. Москва: Высшая школа.
- Yo'ldoshev, M. 2008. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. Toshkent.
- Потаенко, Н. А. 1984. "К языковому освоению временной структуры действительности". *Вопросы языкознания* 6: 43-53.
- Xudoyberganova, D. 2015. *O'zbek tilida matnning antroposentrik talqini*. Toshkent.
- Шадманкулова, Д. Х. 1990. *Способы и средства выражения временных отношений в современном узбекском литературном языке*. Автореф. дис... канд. филол. наук. Ташкент.

References

- Galperin, I. 1981. *Tekst kak obekt lingvisticheskogo issledovaniya*. Moskva: Nauka.
- Hakimova, M. 2019. "Temporal semantika mavhum otlar tasnifi". *Kul'turologiya, iskusstvovedenie i filologiya: sovremennye vzglyady i nauchnye issledovaniya*,

2(18): 93-98. Moskva: Internauka.

Hakimov, M.H. 2001. *Uzbek tilida matnning pragmatik talqini*. Filol. fanlari dok. diss.. avtoref. Toshkent.

Moskal'kaja, O.I. 1981. *Grammatiki teksta*. Moskva: Vysshaja shkola.

Yo'ldoshev, M. 2008. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. Toshkent.

Potaenko, N. A. 1984. "K jazykovomu osvoeniju vremennoj struktury dejstvitel'nosti". *Voprosy jazykoznaniya* 6: 43-53.

Xudoyberganova, D. 2015. *O'zbek tilida matnning antroposentrik talqini*. Toshkent.

Shadmankulova, D. H. 1990. *Sposoby i sredstva vyrazheniya vremennyh otnoshenij v sovremennom uzbekskom literaturnom jazyke*. Avtoref. dis... kand. filol. nauk. Tashkent.

Muallif haqida: *Hakimova Muhayyo Karimovna* – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Iqtibos uchun: Hakimova, M. K. 2020. "Vaqt semantikali leksik birliklarning matn shakllantirish imkoniyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 20–34.

About the author: *Muhayyo K. Hakimova* – Doctor of Sciences in Philology, Associate Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

For citation: Hakimova, M. K. 2020. "Text of Semantic Lexical Units for Time Molding Options". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 20–34.